

## FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

**Murodova Munisa Mukammal qizi**

*Navoiy Davlat Pedagogika Instituti Xorijiy til va filologiyasi yo'nalishi 2-kurs  
magistranti  
baxtiyormirshodovich1@gmail.com*

**Abstrakt :** *Frazeologik birliklar tarkibi va tuzilishida barqaror, alohida leksik birlik vazifasini bajaradigan, leksik jihatdan bo'linmaydigan va qiymatli so'z birikmasidir. Zamonaviy tilshunoslikda tilni lingvo-kognitiv, kommunikativ yo'nalishlardan kelib chiqib o'rganish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Tilning mohiyatini o'rganish har bir millatning ma'naviy merosi, tarixi, milliy qadriyatlari, madaniy boyliklarini chuqurroq anglab yetishga imkon yaratib beradi. Til va madaniyat o'rtasidagi aloqa, milliy mentalitetni anglash tilning mohiyati va uning kommunikativ funksiyasini chuqur va ilmiy o'rganib , tahlil qilishga zarurat yaratib beradi va shu ma'noda, til va madaniyat o'rtasidagi aloqani o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Biz turli tillarda qo'llaniladigan birliklarni taqqoslab, frazeologik birliklarning lingvomadaniy kontekstda qo'llaniladigan xususiyatlarini o'rgandik va ushbu ma'lumotlarni lingvokulturologiyani chuqurroq o'rganishdagi afzalliklarni aniqladik. Ushbu maqolada frazeologik birliklar tilning ajralmas bo'lagi ekanligi aniqlandi . Shuningdek frazeologik birliklar turli xil tillarda turli manolarni berishi asoslandi . Ushbu tadqiqot tildagi frazeologik birliklarni umumiy xossalari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek , ushbu tadqiqot turli tillardagi birliklarning lingvomadaniy tomonlarni ham tadqiq etadi.*

**Keywords:** *Linvokulturalogiya, madaniy aloqalar, semantik tuzilish, ifoda plani, madaniy qadriyat, milliy an'analar.*

**Абстрактный;** Фраzeологические единицы устойчивы по своему составу и структуре, функционируют как отдельная лексическая единица, лексически неделимые и полноценные словосочетания. В современном языкознании приобретает все большее значение изучение языка со стороны лингвопознательного, коммуникативного направлений. Изучение сущности языка позволяет глубже понять духовное наследие, историю, национальные ценности и культурное богатство каждого народа. Связь языка и культуры, понимание национального менталитета порождает необходимость глубокого и научного изучения и анализа сущности языка и его коммуникативной функции, и в этом смысле изучение связи языка и культуры является актуальной проблемой. Мы сравнили употребляемые в разных языках единицы, изучили особенности употребляемых фразеологизмов в лингвокультурологическом контексте и определили преимущества этой информации при более глубоком изучении лингвокультурализма. являются неотъемлемой частью языка. Также было доказано, что фразеологизмы имеют разное значение в разных языках. Данное I

**Ключевые слова:** линвокультурология, культурные связи, смысловая структура, план выражения, культурная ценность, национальные традиции.

**Abstract:** *Phraseological units are stable in their composition and structure, functioning as a separate lexical unit, lexically indivisible and valuable word combinations. In modern linguistics, learning the language from the linguistic-cognitive, communicative directions is gaining importance. Studying the essence of the language allows for a deeper understanding of the spiritual heritage, history, national values, and cultural wealth of each nation. The connection between language and culture, the understanding of the national mentality creates the need to deeply and scientifically study and analyze the essence of language and its communicative function, and in this sense, the study of the connection between language and culture is an urgent issue. remains. We compared the units used in different languages, studied the characteristics of phraseological units used in the linguistic and cultural context, and determined the advantages of this information in the deeper study of linguoculturalism. In this article, it was found that phraseological units are an integral part of the language. It was also proved that phraseological units have different meanings in different languages. This study provides information about the general properties of phraseological units in the language. Also, this study investigates the linguistic and cultural aspects of units in different languages.*

**Keywords:** *Linvoculturology, cultural relations, semantic structure, expression plan, cultural value, national traditions.*

## KIRISH

Har bir millatning o'ziga xos milliy an'analari, urf-odatlar va madaniyati mavjud bo'lib, shu o'rinda har bir millat vakili shu milliylikni o'zida aks ettiruvchi muayyan madaniy til yoxud adabiyotga aloqador bo'ladi. Ma'lumki til ijtimoiy hodisa bo'lib qolmasdan uning madaniyat bilan uzviy bog'liqligi ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasidagi tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos korinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha – lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. (B. Xudayqulov, 2021). Tadqiqotlar mobaynida til va madaniyatning o'zaro uzviy bog'liqligi individual va jamoaviy tarzda keng o'rganish boshlab yuborildi. Lingvokulturologiya (Usmanova, 2001), semantik tuzilish (O'rinbayeva D. 2019), ifoda plani (Jamolxonov, 2021) kabi atamalar ilmiy munozara va tadqiqotlarning bir qismi bo'lib kelmoqda. Biror xalqning madaniy urf odatlari unda so'zlashiladigan tilga tasir etishi endi yangilik emas va bu atamalarning barchasi uning bir qismini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada shu paytgacha yetarlicha tadqiq qilinmagan til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi va shu bog'liqlik turli tillarda turlicha bo'lishi muammolari yoritib berilgan. N.S. Trubetskiyning yozishicha, madaniy konnotatsiyalari biror so'z bo'lishi mumkin emas, ya'ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy

qismlar bo'lishi shart. Til va madaniyat muammosining o'rganilishida bir qancha yondashuvlar mavjud bo'lib, bir tomondan, madaniyatning tilga bir tomonlama ta'siridan borliqning o'zgarishi natijasida milliy – madaniy tipiklashtirish va tilda o'zgarish bo'lishi haqidagi yondashuv( S.A. Atanovskiy, G.A. Brutyan, E.S. Markaryan), boshqa tomondan esa, aksincha, ya'ni hozirgi kungacha ochiq qolib ketayotgan va munozaralarga sabab bo'layotgan masala- tilning madaniyatga ta'siri masalasini o'rganish a bu o'rinda tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish (V. Gumboldt, A.A. Pasosida Sepir-Uorfning lingvistik aloqadorlik gipotezasi, ya'ni har bir xalq borliqni o'z ona tilisi orqali ko'radi, his etadi, his etganini belgilaydi, shu kabi g'oyalar yotadi. Bu shuni anglatadiki, o'rganishlar mobaynida bizning til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muammosi haqidagi qarashlarimiz hali to'liq tahlil etilmagan. Lingvokulturologiyaning fan sifatida o'rganilishi til va xalq o'rasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam berdi. Lekin bizningcha madaniyatning tilga ta'siri haqida yangi tushunchalarni paydo qilishi mumkin bo'lgan tadqiqot obyektlarini chuqurroq o'rganishni taqozo etadi. "Lingvokulturologiya" xususan til va madaniyat bog'liqligi atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N. Teliya, V.V. Vorobyov va boshqalarning ishlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu sohaga oid keng tadqiqotlar bugungi kunda ham davom etmoqda. Xususan, D.G. Maltsevaning Lingvoo'lkashunoslik lug'atini fikrimiz dalili sifatida keltirishimiz mumkin. Ushbu tadqiqot jarayonida til va xalqning milliyliigi o'rtasidagi bog'liqlik va uning natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni tahlil qilish usullari tog'risida so'z yuritiladi. Biz tadqiqotimiz mobaynida 10 ta savoldan iborat so'rovnomalarni 3 ta ta'lim muassasalariga tarqatdik. Ushbu so'rovnomada tilning madaniyat bilan bog'liqlik jihatlari aks etgan. Ushbu tadqiqot natijalari lingvokulturologiya to'g'risidagi bilimlarning oshishiga xizmat qiladi, chunki u hali to'laligicha o'rganilmagan madaniyat va tilning bog'liqlik jihatlari yana aniqroq izohlab beradi. Mazkur tadqiqot tildagi frazeologik birliklarning o'sha millat doirasida qo'llanilish va boshqa tilga tarjima muammolari to'g'risida masalalarga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari lingvokulturologiyaning til o'rganishdagi ta'siri ham keng muhokamalarga sabab bo'ladi.

Maqolaning asosiy qismi quyidagicha tuzilgan. Birinchidan, lingvomadaniyatshunoslik yangi fan sifatidagi tushunchasi va uning til o'rganishdagi roli xususida to'xtalib o'tilgan. Ikkinchidan, ushbu tadqiqotning nazariy asosi yoritiladi. Uchinchidan, tadqiqot doirasida ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish tushuntiriladi. Va nihoyat, biz o'tkazilgan tadqiqot doirasida kelib chiqqan natijalar haqida hisobot beramiz va muhokama qilamiz. Xulosalar chiqariladi va keying tadqiqotlar uchun imkoniyatlar aks ettiriladi.

### **ASOSIY QISM**

Millat har doim o'ziga xos milliy an'analarni saqlaydi. Har bir xalqning o'ziga xos milliy urf-odatlar, an'analari bor. Shu ma'noda har bir inson millatga xos madaniyat, til, tarix va adabiyot bilan bog'lanadi. Til ijtimoiy hodisa sifatida madaniyat bilan uzviy bog'liqdir. Hozirgi kunda insonlar, xalqlar va mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy,

madaniy va ilmiy munosabatlar, xalqaro madaniy kommunikatsiyalar tilshunoslikda tillarning o'zaro aloqasi, til madaniyati va milliy o'ziga xoslikning ahamiyatini oshirmoqda. XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini o'rganuvchi lingvokulturologiya degan yangi soha shakllandi. Lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro ta'sirini, ularning rivojlanishi va o'zaro aloqadorligini o'rganuvchi fan hisoblanadi. Bu fan madaniyatshunoslik va tilshunoslikning kesishmasi bo'lib, til va madaniyatning bir butun tizim sifatida qanday shakllanishini hamda til orqali qanday namoyon bo'lishini o'rganadi. Lingvokulturologiya insoniyatning madaniy til faktoridagi o'rnini va til orqali insonning madaniy rolini o'rganuvchi fan sifatida ajralib turadi. Bu fan madaniyatshunoslik va tilshunoslikka yaqin bo'lsa-da, u o'ziga xos obyekt va metodlarga ega. U xalqning madaniyati tilda qanday aks etishini, til milliyligini va til ruhiyatini o'rganadi. Shu bilan birga, millatning tilga xos milliy xususiyatlarini tadqiq qiladi. Jahon tilshunosligida XX asr oxiridan boshlab tilni antropotsentrik yondashuv, ya'ni tilni o'z sohibi, uning milliy mentaliteti, milliy madaniyati bilan birga tadqiq etish barqarorlashdi. Natijada "antropotsentrizmning pragmalingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya" kabi yo'nalishlari vujudga keldi<sup>43</sup>. Til va madaniyat – butun birlik. Unda " ...asrlar davomida shakllangan, asoslangan, umummilliy xarakterdagi madaniy kod – obrazlar saqlanadi"<sup>44</sup>.

Tilning nafaqat sistemaviy, balki kognitiv-semiologik tuzilma ekanini ta'kidlash lozim. Shu bois, V.Maslovaning ko'rsatishicha, tilshunoslikdagi antropotsentrik paradigma doirasida rivoj topayotgan asosiy tarmoqlardan biri lingvomadaniyatshunoslikdir. Bugungi davrda lisoniy birliklarni millat madaniyati bilan aloqadorlikda o'rganuvchi lingvomadaniyatshunoslik (lingvokulturologiya) XX asrning so'nggi choragida shakllana boshladi, jahon tilshunosligidagi yetakchi hamda istiqbolli yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi, tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida tan olindi.<sup>45</sup>

"Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati"dagi ilmiy talqinga ko'ra, lingvokulturologiya (lot. lingua – til +lot. Cultira-ishlov berish+grek. Logos-ta'limot) tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganuvchi sohadir<sup>46</sup>. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida deyarli barcha tadqiqotchilar ushbu nazariyaning ildizi V.fon Humboldtga<sup>47</sup> borib taqalishini, "lingvokulturologiya"

<sup>43</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: САНгзор, 2006; Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент:Фан, 2013; Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фан. док. ...дисс. –Тошкент, 2015. – Б. 6; Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – B.12-1

<sup>44</sup>Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа (ПхД) д-ри ... дис. – Тошкент, 2019. –Б. 21.

<sup>45</sup> Маслова В.А. Лингвокультуроология. – М.: Академия, 2007. – С.8.

<sup>46</sup> Худойберганова Д.Лингвокультуроология терминларининг кичкача изоҳли луғати. –Тошкент: “Турон замин зиё”, 2015. – Б.26.

<sup>47</sup> Воробьев В. В. Теоретические и прикладные аспекты лингвокультуроологии. Док.филол.наук....дисс. – М.,1966. – С. 345; Иванова С. В. Лингвокультуроологический аспект исследования языковых единиц. Док. филол. наук. ...дисс. – Уфа, 2003. – С. 364; Маслова В. А. Лингвокультуроология. Учебное пособие. –М.:

terminini esa V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan deb ta'kidlaydilar.<sup>48</sup>

“Til va madaniyat” muammosining o'rganilishida bir qancha yondoshuvlarni belgilash mumkin: birinchi yondoshuv faylasuf olimlar (S.A. Atanovskiy, G.A.Brutyayn, E.S.Markaryan)lar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda madaniyatning tilga bir tomonlama ta'siridan borliqning o'zgarishi natijasida milliy madaniy tipiklashtirish va tilda o'zgarish yuz beradi, degan g'oya yotadi<sup>49</sup>.

N.I.Tolstoyning fikricha, “Tilni madaniyatning tarkibiy qismi yoki madaniyat quroli sifatida qabul qilish mumkin (bu bir xil narsa emas), ayniqsa, adabiy til yoki folklor tili haqida gap ketganda. Biroq, til bir vaqtning o'zida butun madaniyatga nisbatan avtonomdir va uni madaniyatdan alohida ko'rib chiqish mumkin (bu doimiy ravishda) yoki ekvivalent sifatida madaniyat bilan solishtirganda va teng hodisalar orqali amalga oshiriladi” [Tolstoy 1995: 16].

Ma'lumki, til madaniyatning milliy o'ziga xos tarkibiy qismlari orasida birinchi o'rinni egallaydi. Avvalo, til madaniyat ham muloqot vositasi, ham odamlarni ajratish vositasi bo'lishi mumkinligiga hissa qo'shadi. Demak, ma'lum bir tilda so'zlashuvchilari ma'lum bir jamiyatga tegishli ekanligining belgisi hisoblanadi. Atab aytganda, til tafakkurning tabiatini, dunyoni bilish usulini belgilab ko'rsatadi, insonning ongi va xatti-harakatiga ta'sir qiladi. Tilga madaniyat hodisasi sifatida munosabat, uni ushbu pozitsiyalardan tavsiflash milliy mentalitet belgilariga e'tibor qaratish va ularning lug'at, frazeologiya, nutq odobi, axloqiy tushunchalar, ma'lum bir narsa tashuvchisining nutqiy faoliyati tabiatida aks etishini taqozo etadi.<sup>50</sup>

G.V Kolshanskiyning fikricha, “dunyo manzarasi” – inson va uning turmushining o'ziga xos xususiyatlari, uning tevarak-olam bilan o'zaro munosabatlari, shuningdek uning ushbu dunyoda hayot kechirish shart-sharoitlarini aks ettiradigan asosiy tushunchadir. “Dunyo manzarasi – bu insonning dunyoni idrok etishiga asos bo'ladigan, bunday manzarani til sohiblari tushunchasida dunyoning mohiyatga oid xususiyatlarini aks ettiradigan va insonning butun ma'naviy faolligi natijasi hisoblanadigan olamning asosiy global obrazidir” Muallif alohida qayd qiladiki, bu har doim obyektiv voqelikning subyektiv obrazi bo'ladi, chunki dunyo manzarasi voqelikdagi voqeahodisalarning ko'zgudagi aksi emas, balki atigi bir talqini, xolos. “Dunyo manzarasi”ga o'zgarib turish xos, binobarin u dinamik tusga ega va bilish jarayoniga yo'naltirilgan. U insonning olam bilan aloqalari jarayonida vujudga keladi, bunda aloqalar tajribasi va shakllari g'oyat xilma-xilligi bilan tavsiflanadi.

---

Академия, 2008. –208 с.; Махмудов Н. Тилининг мукаммал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. №5. – Б. 3-16; Худойберганава Д. Тил. Тафаккур.Маданият. – Тошкент: “Нодирабегим”, 2020. – Б. 4.

<sup>48</sup> Muqimova Z.R. “Zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo'nalishi” filologiya bo'yicha falsafa doktori (PhD) maqola, International scientific conference may 17-18, 2004, 287b

<sup>49</sup> Buhaqdaqarang: Сепир Э. Отношение норм. Поведения и мышления к языку в кн.: НЛ.В.1.М.,1960

<sup>50</sup> Sadullayeva A.N. “Til va madaniyatning lingvomadaniy aloqalari” Berdaq nomli Qoraqalpoq Instituti Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2022y, 63b.

O.N.Yermolayeva dunyoning tildagi manzarasi tadqiqotining ikkita negizini aniq tabaqalashtirish zarurligi haqida yozadi:

1) bizdan tashqarida, bizga umuman bog'liq bo'lmasdan amal qiladigan, predmetlari o'rtasida o'ziga xos maxsus munosabatlar va aloqalar mavjud bo'ladigan dunyo manzarasining tildagi aksi;

2) tildan bizdan tashqarida, predmetlari o'rtasida o'ziga xos maxsus munosabatlar va aloqalar mavjud bo'ladigan bizga umuman bog'liq bo'lmasdan amal qiladigan dunyo manzarasining olinishi.<sup>51</sup>

Bilamizki, tilshunoslik va madaniyatshunoslik yo'nalishlari bir-biridan farq qiladi.

Lingvokulturologiyada lingvistik o'ziga xoslik juda muhimdir: tilga nutq faoliyatining tizimi va mahsuloti sifatida qaraladi. Agar madaniyatshunoslik insonning tabiat, jamiyat, san'at, tarix va boshqa ijtimoiy va madaniy borliq sohalarida o'z-o'zini anglash xususiyatini o'rgansa, tilshunoslik tilda dunyo lisoniy manzarasining mental modellari sifatida aks etuvchi dunyoqarashni o'rganadi.

“Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi” (O'zME, V, 372-373), “jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarining yig'indisi madaniyatda gavdalanadi”<sup>52</sup>. “Tilda u yoki bu lisoniy belgi, ya'ni tovush ifodasi bo'lmasa, unga mos keladigan tushuncha ham bo'lmaydi, turli tilda gaplashuvchi insonlar turli olamlarda yashaydilar”<sup>53</sup>.

### NATIJA VA XULOSALAR

Turli tillardagi ayni bir xil tushunchani ifodalovchi so'zlar semantik sig'imiga ko'ra farqlanishi, voqelikning har xil parchalarini qamrab olishi mumkin. S.T.Ter-Minasovanning fikricha, in'ikos usullari va shakllari ham tushunchalarning shakllantirilishi singari, o'z navbatida, ushbu nutq jamoasi hayotining ijtimoiy-madaniy va tabiiy o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Til orqali tafakkurdagi tafovutlar aynan bir hil tushunchani ifodalash shakllarining ortiqchaligi yoki yetishmasligini sezishda namoyon bo'ladi. Y.D.Apresyan dunyoning tildagi “sodda” manzarasi haqidagi masalaning hozirgi holatini tavsiflab, bunday tadqiqotning ikkita asosiy yo'nalishda ketayotganini qayd qiladi.

1. Bir tomondan, tilga oid va umumiy madaniy ong “stereotiplari”ning ushbu etnosga xos bo'lgan ayrim jihatlari tadqiq qilinadi. Muallif ularni o'ziga xos lingvomadaniy izoglosslar va izoglosslar turkumlari deb ataydi. Bular ko'ngil, hasrat, taqdir, kechmish, iroda va shu kabi tipik jihatlardir. Boshqa tomondan, deb qayd qiladi muallif, bular nospetsifik jihatlarning o'ziga xos konnotatsiyalaridir (masalan, turli madaniyatlardagi ranglar bilan ifodalanadigan ramzlar).

<sup>51</sup> Shayxislamov N. “Hozirgi zamon tilshunosligida til va madaniyaning talqini” Scientific Progress journal ISSN: 2181-1601// Volume 1 Issue 1 p62

<sup>52</sup> Гулметов Э., Қобилжонова Т., Эрназаров Ш., Маврулов А. Маданиятшунослик. –Тошкент, 2000. – Б. 6.

<sup>53</sup> Л.Вайсгербер Нурмонов А. Лингвистик нисбийлик ва лингвистик детерминизим назариялари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2013. - № 5. – Б. 10-19.

2. Ayni bir vaqtda “til uchun xos bo‘lgan dunyoga nisbatan garchi “sodda” bo‘lsada, lekin ilmiygacha bo‘lgan yaxlit qarashni izlash va qayta ta‘mirlash bo‘yicha izlanishlar bormoqda” Ya‘ni, “umuman dialekt” tadqiq qilinayapti. Muallifning fikricha, bu o‘rinda milliy o‘ziga xoslikning hisobga olinishida baribir “asosiy diqqat e‘tibor aynan shu dunyoning tildagi yaxlit manzarasiga qaratiladi”

Muallif oxirgi yo‘nalishning asosiy qoidalarini xulosalab, shunday ta‘kidlaydi:

“1. Har bir tabiiy til dunyoni idrok etish va tashkil qilish (konseptuallashtirish)ning muayyan usulini aks ettiradi. Unda ifodalanadigan mohiyatlar qarashlarning qandaydir yagona tizimda, o‘ziga xos jamoatchilik falsafasiga mujassamlashadi, bunday falsafa ushbu tilda gaplashuvchilar uchun majburiy qoida sifatida belgilanadi..

2. Til uchun xos bo‘lgan voqelikni konseptuallashtirish usuli (dunyoqarash) qisman universal, qisman milliy jihatdan o‘ziga xos bo‘lib, turli tillarda so‘zlashuvchilar dunyoni birozgina turlicha, o‘z tillari prizmasi orqali ko‘rishlari mumkin.

3. Boshqa tomondan, u ko‘pgina muhim detallari yuzasidan dunyoning ilmiy manzarasidan farq qilishi sababli “sodda” hamdir. Bunda oddiy tasavvurlar aslo faqat soddagina emas. Ko‘pchilik hollarda ular xuddi ilmiy tasavvur kabi murakkab va qiziqarlidir. Masalan, insonning ichki olami haqidagi oddiy tasavvurlar shundaydir...”

G.V. Kolshanskiyning qayd qilishicha, tilning mazmunan tashkil qilinishidagi bir tizimga soluvchi negizni izlashlar lingvistlarni tilning semantik tahliliga olib keldi. Tilga nisbatan bunday yondashuv so‘zlarning ahamiyatiga nisbatan bir tizimli qarashni nazarda tutadi. Gap semantik maydon uslubi haqida bormoqda. Semantik maydon deganda qaydaydir tushuncha (ba‘zan – g‘oya) atrofida guruhlashadigan so‘zlar va so‘z birikmalari nazarda tutiladi. Matnning bunday elementlari “semantik primitivlar” so‘zlar va idiomalar amal qilishini faraz qiladi. I.Trir fikriga binoan “semantik maydon” lug‘atning ushbu tilning muayyan “tushunchali” sohasini qamrab oladigan muqim qismidan iborat. “U betakror, o‘zining ichki qonunlari bilan boshqariladi va o‘zining turli tillar hamda aynan bir til tarixidagi mavjud shunga o‘xshash hodisalarg o‘xshamaydigan “dunyo manzarasini” amalga oshiradi”.<sup>54</sup>

Ko‘rib turganimizdek, V.V.Vorobyovning ta‘kidlashicha, tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida vujudga kelgan lingvomadaniyatshunoslik ma‘lum bir milliy-madaniy hamjamiyat til shaxsining ma‘naviy qadriyatlari va tajribasini ma‘lum bir shaklda shakllangan majmuini o‘rganadigan yangi filologik fan bo‘lib, birinchi navbatda, jonli kommunikativ jarayonlarni va ularda o‘rganilayotgan lingvistik iboralarning xalqning sinxron harakat qiluvchi mentaliteti bilan bog‘lanishini o‘rganadi va ta‘limning tarbiyaviy va intellektual vazifalarini bajarilishini ta‘minlashini ta‘kidlab o‘tgan [Vorobyev 1999: 77].

<sup>54</sup> Shayxislamov N. “Hozirgi zamon tilshunosligida til va madaniyaning talqini” Scientific Progress journal ISSN: 2181-1601// Volume 1 Issue 1 p65-66

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: САНгзор, 2006; Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент:Фан, 2013; Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фан. док. ...дисс. –Тошкент, 2015. – Б. 6; Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. –Toshkent, 2019. – B.12-1
2. Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа (ПхД) д-ри ... дис. – Тошкент, 2019. –Б. 21.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2007. – С.8.
4. Худойберганова Д.Лингвокультурология терминларининг қичқача изоҳли луғати. –Тошкент: “Турон замин зиё”, 2015. – Б.26.
5. Воробьев В. В. Теоретические и прикладные аспекты лингвокультурологии. Док.филол.наук....дисс. – М.,1966. – С. 345; Иванова С. В. Лингвокультурологический аспект исследования языковых единиц. Док. филол. наук. ...дисс. – Уфа, 2003. – С. 364;
6. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие. –М.:Академия, 2008. –208 с.;
7. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. №5. – Б. 3-16;
8. Худойберганова Д. Тил. Тафаккур.Маданият. – Тошкент“Нодирабегим”, 2020. – Б. 4.
9. Muqimova Z.R. “Zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo’nalishi” filologiya bo’yicha falsafa doktori (PhD) maqola , International scientific conference may 17-18 , 2004 , 287b
10. Buhaqdaqarang: Сепир Э. Отношение норм. Поведения и мышления к языку в кн.: НЛ.в.1.М.,1960
11. Sadullayeva A.N. “Til va madaniyatning lingvomadaniy aloqalari” Berdaq nomli Qoraqalpoq Instituti Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2022y, 63b.
12. Shayxislamov N. “Hozirgi zamon tilshunosligida til va madaniyaning talqini” Scientific Progress journal ISSN: 2181-1601// Volume 1 Issue 1 p62
13. Гулметов Э., Қобилжонова Т., Эрназаров Ш., Маврулов А. Маданиятшунослик. –Тошкент, 2000. – Б. 6.
14. Л.Вайсгербер Нурмонов А. Лингвистик нисбийлик ва лингвистик детерминизим назариялари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2013. - № 5. – Б. 10-19.